

## FAYNBERG NASRIDA BADIY IZLANISHLAR VA YANGICHA USLUB

**Nurmaxmatova Firuza Rasulovna**

*O'zbekiston Davlat Jahon tillari*

*Universiteti Ingliz filologiyasi*

*fakulteti 2-bosqich talabasi*

[feruzanurmaxmatova2005@gmail.com](mailto:feruzanurmaxmatova2005@gmail.com)

**Annotatsiya:** Aleksandr Arkadevich Faynberg XX asrning ikkinchi yarmi XXI asr boshida o'zining boshqalarnikidan farq qiluvchi o'zgacha qarashlari, lirizm va falsafiy mushohadalarga boy ijodiy yo'li bilan adabiyotda o'z o'rnini va millionlab o'quvchi muxlislarini topdi. Uning nasr shaklida yozilgan asarlarida shaxsiy kechinmalar, falsafiy mushohadalar, zamonaning dolzarb muammo-masalalari, ummuminsoniy qadriyatlar yangicha badiiy uslubda kitobxonga tushunarli tarzda keng yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** klassik realizm, modernistik, lirik proza, ichki monolog, falsafiy qatlam, poetik nasr, janr sintezi, badiiy ohang.

Aleksandr Faynbergning nasrda yozilgan asarlari klassik realizm chegarasidan o'tib modernistik va liriko-falsafiy oqimga yaqin kelib qolgan. U an'anaviy voqeadorlikni qog'ozga tushurishdan ko'ra, inson ruhiy olamini, kechinmalarini va ong oqimini markaziy mavzu deya o'rta qo'yib, shu mavzu zamona muammolariga bog'lagan holatda ochib beradi. Masalan, uning hikoyalarida voqea ketma-ketligi emas, balki qahramonning ichki monologi, tasavvurlari va qalb tubida kechirayotganlari asosiy badiiy qurol sifatida foydalaniladi. Shu bilan birga u o'z asarlarida yana bir qancha ommaviy muammolarni e'tirof etish orqali o'quvchini ogohlikka chorlaydi. "Buzuq kran jumragidan H<sub>2</sub>O behuda tomchilab turgani ni ko'rsam, qonim qaynab ketadi. Suv yo'qlikka, noma'lumlikka ketyapti, axir". Bu jumla yozuvchining o'zbek tiliga tarjima qilinga "Chig'ir" nomli to'lamida keltirilgan "Chig'irning tushlari" hikoyasidan olingan bo'lib ijodkorni butun insoniyatni qiynab kelayotga suvsizlik muammosiga befarq emasligi, uning oldini olish uchun yozuvchi sifatida ma'naviy ta'sir orqali yordam berishga intilayotganiga guvoh bo'lamiz.

Faynberg o'z nasrida yangi uslub va badiiy shakllardan samarali foydalana olgan ijodkorlardan sanaladi. U o'z asarlarida lirik poetika, ichki monolog, falsafiy qatlam, poetik nasrni singari yangicha uslublarni uyg'un tarzda ishlatib yanada ta'sirli nasriy asarlar yaratgan. Ijodkor asarlarida nasriy poetika kuchli elementlarda bo'lib, unda tasvir uchun tabiat manzaralari, metaforalar va ramzlar keng qo'llaniladi. Ichki monolog va ong texnikasidan foydalanish orqali qahramonning ruhiyati bevosita o'qishga ochiladi. Albatta, falsafiy qatlam Faynberg nasrining

ajralmas qismi bo'lib, insonning jamiyatdagi o'rni, hayot mazmuni, vaqt va xotiralar muhokamasi takror-takror ta'kidlanaveradi. Asar jumalari ko'pincha she'riy ohangga monand, ritmli bo'lib, bu poetik nasrning o'ziga xos xususiyatidir.

Faynberg asarlarida tabiat manzaralari insoniy kechinmalar bilan uyg'unlik hosil qilishini quyidagi jumlada ko'rsak-a: "Sokin ko'l ustida chayqalib turgan tuman menga xotiralarimni eslatadi. Yillar ham xuddi shu tuman kabi tarqalib ketgandek, ammo yuragimda iz qoldirib...". Mohirona foydalanish orqali mana shu oddiygina ko'rinayotgan tabiat manzarasi metafora orqali vaqt va xotira timsoliga aylanadi.

"Bizning hayotimiz ham kuz barglaridek. Bir-biridan ayrilgan barglar shamol ichida uchadi, ammo ildiz hamon yer bag'rida qoladi." Yozuvchining shu kabi falsafiy o'y-qarashlar kitobxonni o'yga toldiradi. Bu yerda nasrda yozilgan falsafiy mushohada poetik ramzlar bilan boyitilgan. Yoki mana bu jumlagi e'tibor qaratsak: "Yo'llar jim. Qorong'ilikda shamolning ovozi. Uning sadosi qalbda eski dardlarni uyg'otadi." Bu jumlar nasriy asardan olingan namuna bo'lsa-da, undagi ohangdorlik, ya'ni poetik nasrning qo'llanishi uni o'quvchiga mutoala uchun oson va qiziq qiladi.

Shoir va nasrnavis sifatida Faynberg o'zbek adabiyotiga bir nechta yangilik olib kirdi. Bulardan janr sintezi, tabiat va inson uyg'unligi, alohida badiiy ohang e'tirofqa loyiq. Janr sintezida proza va poeziya elementlarini uyg'unlashtirib o'ziga xos uslub yaratilsa, tabiat va inson uyg'unligida qahramon ruhiyati tabiat bilan parallel ravishda tasvirlanadi. Alohida ohang uning lirizm, falsafiy mushohada va ramziy vositalarida bilinadi.

Faynberg oddiy insonlarni o'z asarlarining asosiy qahramoniga aylantirgan va ular orqali umuminsoniy falsafiy savollarini kitobxon fikr-mulohazasiga tashlagan. Aleksandr Arkadevich Faynberg ijodiyoti o'zbek adabiyotini yangi davrning yangi bosqichiga chiqargan benazir va sermahsul yo'ldir. Uning adabiyotimizga olib kirgan yangi uslub va izlanishlari nafaqat milliy adabiyotimiz bilan, balki jahon adabiyoti bilan uyg'unlikni hosil qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. fayнберг А.А Избранное.-Ташкент: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
2. Aleksandr Arkadevich Faynberg hayoti va ijodini o'rganish bo'yicha Dasturiy uslubiy qo'llanma
3. Файнберг А.А. Стихи проза.-Ташкент: Yozuvchi, 1995.
4. Каримов N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi.-Toshkent: Fan, 2010.
5. Шерматов U. O'zbek nasrida modernistik oqimlar.-Toshkent: Universitet nashriyoti, 2015.
6. Сиддик, ова D. Adabiyotshunoslik asoslari.-Toshkent: Ma'naviyat, 2012